

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov, B.J.Mavlanov, O.T.Mamatqosimov O'zbekistonda <i>Hordeum Bulbosum</i> L. ning hosildorlik ko'rsatkichlari | 137 |
| M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov <i>Eurydema</i> Laporte, 1833 (Hemiptera: Pentatomidae) avlodining mavsumiy rivojlanishi va ozuqa o'simliklariga ixtisoslashuvi | 148 |
| A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov Navoiy viloyati Konimex tumanida <i>Ferula varia</i> (Schrenk) Trautv. ning tabiiy resurslari | 153 |
| M.X.Akbarova Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining areal tiplari tahlili | 166 |
| X.S.Umurzaqova, G.M.Zokirova <i>Euzophera Bigella</i> Zeller, 1848 (Lepidoptera, Pyralidae) turining morfobiologiyasi..... | 172 |
| E.A.Ergashev Osh tuzining turli konsentratsiyali eritmalarida kristallanish tuzilishi va ularning buyrak toshi shakllanishidagi ahamiyati | 178 |
| S.Q.Kimyonazarov Markaziy Farg'ona mevali bog'larida uchrovchi barg o'rarlar (Lepidoptera: Tortricidae) haqida | 183 |
| E.A.Ergashev So'lak tomchilarining kristallanish zonalarida morfologik elementlar va faza o'zgarishlarining shakllanishi | 188 |

GEOGRAFIYA

| | |
|--|-----|
| Y.I.Ahmadaliyev, A.F.Raxmatov Surxondaryo viloyatini lanshaft turlariga ajratish va uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati..... | 193 |
| Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov Farg'ona mintaqasi: iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar | 198 |
| J.A.Namozov, M.M.Mirislomov Jahonda ekologik turizm rivojlanishining regional tahlili | 210 |
| I.K.Aripov Sirdaryo viloyatidagi botqoqlangan aholi punktlari | 216 |

ILMIY AXBOROT

| | |
|---|-----|
| I.Adashev Bo'lajak pedagoglarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 222 |
| Z.A.Ergasheva Ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlili | 228 |
| I.Adashev Informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati..... | 232 |
| V.A.Giyosova Murojaatning sotsiologik tabiati | 236 |
| D.M.Zaripova Public relations: the key to Enhancing university global rankings and reputation..... | 241 |
| A.I.Tuychiyev Sport va turizm jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining asosiy vositasi | 248 |
| S.Sh.Rasulov "Qishloq xo'jaligi axborot kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi..... | 251 |
| S.A.Rahmonberdiyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronik tadqiqi | 255 |
| Q.M.Xakimov Voleybol jamoaviy sport o'yinlarining talabalarda hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar | 261 |
| D.M.Azimova Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi..... | 264 |



UO'K: 910.3

SURXONDARYO VILOYATINI LANSHAFT TURLARIGA AJRATISH VA UNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI**РАЗДЕЛЕНИЕ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ТИПЫ ЛАНДШАФТОВ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ****SEPARATION OF SURKHANDARYA REGION INTO LANDSCAPE TYPES AND ITS SIGNIFICANCE IN AGRICULTURE****Ahmadiyev Yusufjon Ismoilovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti, geografiya fanlari doktori, professor**Raxmatov Abduxoliq Farxodovich²** ²Farg'ona davlat universiteti, doktorandi**Annotatsiya**

Bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lgan qishloq xo'jaligi geografiyasi asosan hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda uning asosiy vazifasi aholiga oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlari hamda sanoat tarmoqlariga xususan: (oziq-ovqat, omuxta yem, to'qimachilik, farmatsevtika va boshqa) xom ashyo yetkazib berishdan iborat. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining rivojlantirish borasida bir qator yutuqlarga erishgan. Bugungi kunda viloyat asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlariga paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, pillachilik, limonchilik. Tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan, bug'doy va arpa) bilan shug'ullaniladi. Ammo qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishda lanshaft omilini inobatga olish bugungi kunning talabidir. Afsuski, bugungi kunning o'z talabi va qoidalari mavjud. Xususan, qishloq xo'jaligi maqsadida foydalaniladigan xududning landshaftlar qishloq xo'jalikda uzoq vaqt barqaror foydalanish nuqtai nazaridan tadqiq etilayotganligi sababli, ushbu tadqiqotda lanshaft omili dolzarb hisoblanadi. Shu sababli Surxondaryo viloyati hokimiyati va Surxondaryo viloyati yer resurslari va davlat kadastiri boshqarmasi ko'magida tayyorlangan "yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tomonidan 2012-yilda nashir qilingan "surxondaryo viloyati o'lkashunoslik va tabiiy kartasi" materiallaridan foydalangan holda ikkita yirik balandlik mintaqalari ajratildi va o'z navbatida bu ikki tekislik va tog'lik lanshaft ko'rsatgichlariga ajratildi. Ushbu balandlik mintaqalari taqqoslash va geografik bashoratlash hamda GIS dasturlaridan foydalangan holda kelajakda qishloq xo'jaligi yerlaridagi lanshaftlarning o'zgarishini baholash va takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Аннотация

Сельскохозяйственная география, являющаяся одной из наиболее интересных тем современности, представляет собой территориальную организацию сельского хозяйства и закономерности его развития, а ее основной задачей является снабжение населения продуктами питания, швейными изделиями, а также ряда отраслей промышленности, в частности : (продукты питания, корма, текстиль, фармацевтика и др.) состоит из поставок сырья. Достигнут ряд достижений в развитии сельского хозяйства Сурхандарьинской области. Сегодня основными отраслями сельского хозяйства региона являются хлопководство, зерноводство, садоводство, выращивание коконов, выращивание лимонов. В предгорьях гор практикуется сухое земледелие (в основном пшеница и ячмень). Однако учет ландшафтного фактора при использовании сельскохозяйственных земель является требованием сегодняшнего дня. К сожалению, сегодня есть свои требования и правила. В частности, поскольку ландшафты территории, используемой в сельскохозяйственных целях, изучаются с точки зрения долгосрочного устойчивого использования в сельском хозяйстве, ландшафтный фактор считается актуальным в данном исследовании. Таким образом, с использованием «геологической и природной карты сурхандарьинской области», изданной в 2012 году госкомитетом «ергеодезкадастр», подготовленной при поддержке администрации Сурхандарьинской области и управления земельных ресурсов и государственного кадастра Сурхандарьинской области, были выделены два больших высотных района, и в свою очередь, эти две равнины и горы разделены на ландшафтные указатели. Эти регионы высот используются для сравнения и прогнозирования будущих сельскохозяйственных ландшафтов с использованием программного обеспечения ГИС, а также для разработки предложений и рекомендаций.

Abstract

Agricultural geography, which is one of the most interesting topics of today, is the territorial organization of agriculture and the laws of its development, and its main task is to supply the population with food, clothing products, and

a number of industries, in particular: (food, fodder, textiles, pharmaceuticals and other) consists of supplying raw materials. A number of achievements have been made in the development of agriculture in Surkhondarya region. Today, the main agricultural sectors of the region are cotton growing, grain growing, horticulture, cocoon growing, lemon growing. Dry farming (mainly wheat and barley) is practiced in the foothills of the mountains. However, taking into account the landscape factor in the use of agricultural land is a requirement of today. Unfortunately, today has its own requirements and rules. In particular, since the landscapes of the area used for agricultural purposes are being studied from the point of view of long-term sustainable use in agriculture, the landscape factor is considered relevant in this research. Therefore, using the "geological and natural map of surkhondarya region" published in 2012 by the state committee "yergeodezkadastr" prepared with the support of Surkhondarya region administration and land resources and state cadastre department of Surkhondarya region, two large altitude regions were separated, and in turn, these two plains and mountains divided into landscape pointers. These elevation regions are used to compare and predict future agricultural landscapes using GIS software and develop suggestions and recommendations.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, viloyati hokimiyati, GIS dasturi, balandlik mintaqalari, lalmikor dehqonchilik, lanshaft omili, tabiiy landshaftlar, paxtachilik, g'allachilik, tekislik lanshafti.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, региональная власть, ГИС-программа, высокогорные районы, богарное земледелие, ландшафтный фактор, природные ландшафты, хлопководство, зерноводство, равнинный ландшафт.

Key words: Agriculture, regional government, GIS program, altitude regions, dry farming, landscape factor, natural landscapes, cotton growing, grain growing, plain landscape.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi geografiyasi bugungi kunda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning juda muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va uning hududiy tizimlari qishloq xo'jalik geografiyasining ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qilsa, o'z-o'zidan qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi muammolarini tadqiq qilish va yechimlar ustida ishlash qishloq xo'jalik geografiyasining predmetini tashkil qiladi. Ko'rishimiz mumkinki, qishloq xo'jaligi – iqtisodiyotning eng muhim va yirik tarmog'i bo'lib, agrosanoat kompleksining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi aholiga oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlari bilan bir qator sanoat tarmoqlariga xususan: (oziq-ovqat, omuxta yem, to'qimachilik, farmatsevtika va boshqa) xom ashyo yetkazib berishdan iborat. Qishloq xo'jaligi geografiyasi – qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini kompleks o'rganuvchi [4; 10-15 b.]. Umumiy ma'noda qisqartirilgan ta'rif beradigan bo'lsak qishloq xo'jaligi geografiyasi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy tizimlaridir.

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining rivojlanishi va unga yondosh tarzda iqtisodiyot tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi sobiq Rus islohati davridagi tarixiy-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar natijisida vujudga kelgan. Bu borada olib borilgan dastlabki islohatlar Ittifoqdagi qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, Ikkinchi Jahon urushi davrida iqtisodiyot tarmoqlarining harbiy tizimdan ko'chirilishi, urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini tiklash, yangi konlarning ishga tushirilishi, yangi yerlarni o'zlashtirish negizida qishloq xo'jaligi ham Surxondaryo viloyatida rivojlana boshladi. Qishloq xo'jaligi bilan uyg'un tarzda sanoat, transport, xizmat ko'rsatish sohalari rivojlantirildi. Mintaqa iqtisodiyotining tarmoqlar va hududiy tarkibida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dastlabki qayta ishlovchi sanoat korxonalarini qurib ishga tushirish siyosati olib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda viloyat asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlariga paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik, pillachilik, limonchilik. Tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan, bug'doy va arpa) bilan shug'ullaniladi. O'zbekistonda eng ko'p ingichka tolali paxta Surxondaryo viloyatida tayyorlanadi. Viloyatning tog'oldi tumanlarida bog'dorchilik va tokchilik rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, qo'y (qorako'l va hisor qo'ylari), echki, yilqi, parranda, quyon boqiladi. Jahon mo'yna va teri auksionlarida juda qadrlanadigan "Surxon suri" qorako'l terisi yetishtiriladi [6; 2-b]. Zamonaviy jamiyatimizda qishloq xo'jaligini joylashtirishda va undan foydalanishda lanshaft omilini inobatga olish xam muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Lanshaft borasida bir qator olimlar o'z qarashlari bilan o'rtoqlashgan. Bu borada V.V.Dokuchayevning shogirdi L.S.Berg rus olimlari ichida birinchi bo'lib landshaftga aniq ta'rif beradi. L.S.Berg 1913-yilda "tabiiy landshaftlar deganda rel'yef, iqlim, o'simlik va tuproq qoplaminin yetakchi belgilari o'xshashligi bilan ajralib turadigan joylarni tushunmoq lozim" deb yozadi. Qadimdan ota - bobolarimiz qayerda yer va suv mavjud bo'lsa o'sha joyda dehqonchilik va chorvachilik bila shug'ullanishgan. Afsuski, bugungi kunning o'z talabi va

GEOGRAFIYA

qoidalari mavjud. Xususan, qishloq xo'jaligi maqsadida foydalaniladigan xududning lanshaft omili dolzarb hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining lanshaftlari g'arbda Ko'hitangtog' va Boysuntog', shimolda Hisor, sharqda Bobotog' va Tuyintog' tizmalari bilan, janubda esa Amudaryo bilan chegaralangan. Botiq janubi-g'arbdan shimoli-sharq tomon 180 km masofaga cho'zilgan. Kengligi janubda 100 km dan shimolda 60 km gacha torayib boradi. Uning ana shu chegaralar orasidagi umumiy maydoni 10270 km² ga teng. Surxondaryo botiq'i o'zining geologik taraqqiyoti tarixida uzoq vaqt davom etgan va ritmik xarakterga ega bo'lgan tektonik harakatlarni va tog' hosil bo'lish jarayonlarini boshidan kechirgan. Botiq va uni o'rab turgan tog' tizmalarining geologik tuzilishida proterozoy, kembriy, ordovik, silur, devon, toshko'mir, perm, trias, yura, bo'r, paleogen, neogen va to'rtlamchi davr yotqiziqqlari ishtirok etadi. Shu bilan birga inson xo'jalik faoliyati tufayli vujudga kelgan antropogen yotqiziqqlar ham keng tarqalgan. Surxondaryo botiq'ining hozirgi relef tiplarini shakllanishida to'rtlamchi davrda sodir bo'lgan yangi tektonik harakatlar, denudatsiya eroziya akkumulyatsiyon jarayonlar va inson xo'jalik faoliyati katta rol o'ynagan. Botiqning geomorfologik strukturasi daryo qayirlari, qayirusti terrasalari, tog'oldi prolyuvial tekisliklar, konussimon yoyilmalari, gryadali-do'ng eol qumlar va antiklinal ko'tarilmalardan tarkib topgan [7; 10-11 b].

Surxondaryo viloyati landshaft hududi rayonlashtirish massalari bilan esa 1970 yilda (Sh.Ergashov) tatqiqotlar amalga oshirilgan. Unda 4 ta rayonga bo'lib o'rganilgan.

1. Surxon-Amudaryo allyuvial tekisliklar
2. Kuhitang-Boysun tog'oldi tekisligi
3. Tuyuntau-Babatog' tayyor tekisligi
4. Kuhitang-Boysun tog'ili rayoni

Abatta, ushbu ajratilgan balandlik lanshaft turlari bo'yicha Respublikamizda ko'plam ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu lanshaftlar o'rtasida doimiy ravshda modda va energiya almashinuvi yuz berib turadi. Bunday o'zaro aloqadorlikning ishlab chiqarish jarayonida hisobga olinmasligi oqibatida, N.A.Gvozdetskiy ta'kidlaganidek, bir landshaftda biron-bir moddaning yetishmasligi, ikkinchisida esa shu moddaning keragidan ortiqchaligi kuzatiladi [2.222-b.]. Natijada, landshaftda salbiy o'zgarishlar yuz berib, uning tabiiy imkoniyatlari pasayadi. Landshaftlar qishloq xo'jalikda uzoq vaqt barqaror foydalanish nuqtayi nazaridan tadqiq etilayotganligi sababli, ushbu tadqiqot ishida Surxondaryo viloyati hokimiyati va Surxondaryo viloyati yer resurslari va davlat kadastiri boshqarmasi ko'magida tayyorlangan "yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tomonidan 2012 yilda nashir qilingan "surxondaryo viloyati o'lkashunoslik va tabiiy kartasi" materiallaridan foydalangan holda ikkita yirik balandlik mintaqalari ajratildi va o'z navbatida bu ikki tekislik va tog'lik lanshaft ko'rsatgichlariga ajratildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1. Viloyatdagi birinchi pag'onada **Baland (tekislik) lanshafti** deb atalib dengiz sathidan 200-600 metrgacha bo'lgan balandliklarni o'z ichiga olib, U «Surxon Sherobod vodiysi»ning bir qismini o'z ichiga oladi. Dehqonchilik uchun qulay ammo, nozik jihatlari ham yo'q emas. Asosan tekislik lanshafti bo'lganligi sababli tuproq yuvilishi, eroziya va ko'chkilar qishloq xo'jaligini joylashtirishda muammolar keltirib chiqarmaydi. Masalaning yana bir tomoni bor notog'ri sug'orish, kerakli melorativ tadbirlar (erning noqulay tabiiy sharoitini iqlim, tuproq, gidrologiya va gidrogeologiya sharoitlarini tubdan yaxshilash) muntazam ravishda amalga oshirilib turilmasa yerlarning yaroqsiz holatga kelib qolishiga sababchi bo'ladi. Cho'l hududi tuproqlarining sho'rlanishga sabab bo'luvchi omillar va ularning oldini olish chora-tadbirlari. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonning sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlari 4.2 mln gektarni tashkil qiladi. Ushbu yerlarning 2 mln gektari turli darajada sho'rlangan va unumdorlik hususiyatlarini yo'qotib bormoqda. Surxondaryo viloyatida esa sho'rlangan yerlarning umumiy maydoni 12860 gektarni tashkil etadi. Tuproqning sho'rlanish ko'rsatkichi nisbatan baland bo'lgan hududlarga Angor, Muzrabot, Sherobod, Qiziriq tumanlarida turli darajadagi sho'rlangan tuproqlarni uchratish mumkin [3; 2-b.].

Ikkinchi balandlik mintaqasi lanshaftlariga **Yuqori (tekisliklar)** deb atalib 600 m dan yuqori bo'lgan mutloq balandliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu tekislik kismining o'rta va yuqori zonasi Surxon cho'kmasi deb yuritiladi. Albatta, ushbu hudud ham dehqonchilik uchun qulay bo'lgan lanshaft turlaridan biri hisoblanadi. Surxondaryoning o'ng terrasalarini, Karatog', To'polang, Sangardaq, Ho'jaipok daryolarini kesib o'tgan va vodiylar hosil qilgan hududlarini o'z ichiga oladi. Bu o'z

navbatida sug'orma dehqonchilikda foydalanishni qulaylashtiradi. Sug'orishda suv tanqis bo'lganligi sababli mavjud lanshaftlarda sug'orish tizimining foydali koeffitsientini oshirish, tejamkorlik hisobiga ko'proq maydonlarni sug'orishga erishishi talab etilib kelinmoqda. Ammo amalda sug'orish ishlari noto'g'ri olib borilishi kuzatilmoqda, bu esa yuqorida keltirilgan tumanlardagi sho'r tuproqli yerlarning ortishiga sabab bo'lib qoladi. Sug'orish tizimlari talab darajasida bo'lmaganligi tufayli yer osti suvlari ko'tarilib, tuproqning sho'rlanish holatining ortishi kuzatilmoqda.

Uchinchi balandlik mintaqasiga **Past tog'lar** to'g'ri kelib dengiz sathidan balandligi 500-1000 m bo'lgan mutloq balandliklarni o'z ichiga oladi. Hududiy chegarasi viloyatning sharqiy qismidagi Bobotog'ining g'arbiy va sharqiy qirg'oqlarini o'z ichiga oladi, tog'oldi tekisliklari Kofarnixon daryosi terrasalarida joylashgan. G'arbiy yon bag'ri ancha yotiq va keng, asosiy qismi past tog'lardan iborat. Qishloq xo'jaligini joylashtirish uchun qulay deb bo'lmaydi, ya'ni dehqonchilik tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishda ayrim muammolarga duch kelishi mumkin. Ushbu lanshaft turi dengiz sathidan 500-1000 m balandlikda joylashgan bo'lib, Sariosiyo, Denov, Uzun, Sho'rchi, Boysun, Bandixon, Oltinsoy va Qumqurg'on tumanlarida uchrasada maydoni jihatidan farq qiladi.

Viloyatning g'arbiy qismida joylashgan va yuqorida zikr qilingan bir qator tog' cho'qqilari va tizmalarini birlashtirgan qisimlarini o'z ichiga olgan to'rtinchi balandlik lanshafti **O'rtacha baland tog'lar** bo'lib dengiz sathidan balandligi 1000-2000 m bo'lgan balandliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu balandlik lanshaftining asosan tog'lar va tog' oralig'i botiqlarni o'z ichiga oladi. Eng ko'p tarqalgan tuproq turlariga tipik bo'z tuproqlardir. Suv chiqarish yo'li bilan dehqonchilikda foydalaniladi. Nisbatan o't o'simliklarga anchayin boy bo'lib, quruq dasht turli o'tlari fonida archali siyrak o'rmonlar, tog' bargli o'rmonlari, siyrak o'rmonlar va butazorlar keng tarqalgan. Bu esa Yaylov chorvachiligining rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu mintaqada ham qishdan bahorga o'tish davri haroratning keskin ko'tarilishi kamdan kam holatlarda sodir bo'ladi: fevralda harorat 4.9°S, martda 10,1°S ko'rsatkichlarida kuzatilsa, aprel oyida 16,9°S ga yetadi, biroq boshqa lanshaftlarga nisbatan qaraganda pastroq hisoblanadi. Bu yerlarda tashkil qilingan ixtisoslashgan ho'jaliklar har yili davlatga tonna-tonnalab pista yalpi hosili topshiradi. Bobotog'ning janubiy va qisman markaziy qismlarida esa minglab qorako'l qo'ylari boqiladi.

So'ngi balandlik mintaqasiga esa **Baland tog'lar lanshaft** mintaqasi kiradi. Ushbu balandlik mintaqasi dengiz sathidan balandligi 2000 m dan baland bo'lgan mutloq balandliklarni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanish bir qator muammolar keltirib chiqaradi. Ayniqsa, 1600-2500 m dan balandda bo'lgan tog' yonbag'irlarida tog'jigarrang tuproqlar taralgan bo'lib, tarkibidagi chirindi 4-6 foizga boradi. 2500 m dan yuqorida yaylov mintaqasi boshlanib, tog'-o'tloq, o'tloq, o'tloq-botqoq tuproq uchratishimiz mumkin. Ushbu hududlarda asosan lalmikor (g'alla va arpa) dehqonchilik bilan shug'ullaniladi.

S. V.Kalesnik 1955 fikricha landshaft qobig'ining rivojlanish manbai bo'lib, undagi ko'plab qarama-qarshi yo'nalishlarning to'xnashuvi hisoblanadi. Eng asosiy qarama-qarshilik landshaft qobig'ining ichki xususiyatlari, ya'ni zonalik va azonalikorasidagi qarama-qarshiligidir. Boshqacha qilib aytganda endogen va ekzogen jarayonlar qarama-qarshiligidir. Landshaftning rivojlanishidagi asosiy sabab va harakatlantiruvchi kuchlar haqida yuqoridagi keltirilgan fikrlardan ham tasavurlar hosil qilsa bo'ladi. Ammo landshaftning uzgarishi haqida gap borganda ko'pincha tashqi kuchlarni ta'siri hisobga olinib, landshaftning ichida ro'y beradigan qarama-qarshiliklar kurashi, son o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi, ya'ni landshaftning o'z-o'zidan rivojlanish xususiyatiga kamroq e'tibor beriladi. Bu bilan tog'li lanshaftlarda ham g'alla va arpadan tashqari boshqa ekinlar ekilib kelmoqda. Balan tog'ning lalmi yerlarida zonalik qonuniyatlariga boysunmagan holda dehqonchiliklar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu qanday sodir bo'lishini quyida tushuntiramiz: cho'ponlar ma'lum vaqt davomida qo'y va echkilarni ma'lum chegaraga ega bo'lgan hududda yotqizishadi va umumiy tog' kordinatasida (chorvasini boqayotgan maydonda) o't o'lanlar ozaygach boshqa bir maydonga ko'chishadi. Mahalliy dehqonlar esa chopondan bo'shagan, chirindiga boy bo'lgan tuproqqa ishov berish orqali o'z dehqonchiliklarini amalga oshirishmoqda. To'g'ri bunday yerlar hajmi jihatdan oz bo'lishi tabiiy holdir. Ammo, bu kabi yerlar Oltinsoy, Denov va Sariosiy hududlarida yil sayin oshib bormoqda.

XULOSA

Surxondaryo viloyati yer resurslarining landshaftidan qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanishda tadqiqotlar quyidagi xulosalarni chiqarishga, tavsiya va takliflarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. Har bir lanshaft huduhi ayniqsa tekislikda joylashgan dalalar atrofiga va sug'orish ob'ektlari atrofida ihota daraxtzorlarni barpo etish, dala atrofida iqlimning issiqligi va quruqligini hamda shamolning ta'sirini kamaytiradi. Bu esa tuproq yuzasidan suvning bug'lanib ketishini ancha sekinlashtiradi, natijada paski qatlamdagi sizot suvini yuqoriga ko'tarilishini, hamda tuproq sho'rlanishini kamaytiradi. Shuningdek ekologik tayanch yerlarning ortishiga zamin yaratadi.

2. Tekislik lanshaftida tarqalgan tuproq qatlamidagi zararli tuzlarni yo'qotish uchun tuproq yuviladi. Sizot suvlarning chuqurligi esa tuproqning sho'rlanish darajasi suv o'tkazuvchanlik xususiyatiga bog'liq bo'ladi va shunga qarab, har qaysi dala uchun o'ziga xos **suv me'yori va yuvish soni** belgilanadi.

3. Xususiy qishloq xo'jaligi antropogen bosimi miqdorining ortib ketishiga sabab bo'layotgan intensivatsiya ko'rsatkichlarini me'yorlashtirishda faqatgina iqtisodiy, texnik, tashkiliy mezonlarni emas, balki ularning ijtimoiy-ekologik asoslarini yaratish va QXAB miqdorini me'yorlashtirish;

Yer fondini yer toifalari bo'yicha taqsimlashda «ekologik tayanch» vazifasini bajaruvchi hududlar salmog'ini ko'paytirish, ularning daryo havzalarini yuqori qismlarida joylashtirish;

Hudud landshaftlari tabiiy tarkibining o'zgarish darajasini doimiy monitoring asosida nazorat qilish, yer turlari orasida «urbanizatsiyalashgan yerlar» miqdorining ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik [1; 264 b.]. Bu kabi islohatlar natijasida qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. Монография -Т.: «Фан ва технологиялар» нашриёти, 2014. -158 б
2. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии (учеб. пособие). –М.: Высшая школа, 1979. -222 с.
3. Отамуродова Д.А. "СУРХОНДАРЁ ВОҲАСИ ХУДУДЛАРИДА ТАРҚАЛГАН ТУПРОҚЛАР ВА УЛАРНИНГ АГРОЭКОЛОГИК МУАММОЛАРИ" Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7
4. Ракитников А.Н. (1970) География сельского хозяйства. – Москва. «Мысль». - п. 342
5. Сурхондарё вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш стратегияси / Назаров Ш.Х. таҳрири остида. – Т., 2013. - 80 б.
6. Сурхондарё вилояти. Википедия маълумоти. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qishloq_xo%CA%BBjaligi
7. Yarashev Q.S. Suxondaryo botigi paragenetik landshaft komplekslari va ularni geoeologik rayon boshqarish //Geog. fan. bo'y. fal. dokt. diss. avtoref. -Toshkent, 2018. -40 b.